

ZUXRA UMAROVA

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA
KONFLIKTOLOGIYA**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Zuxra Umarova

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA
KONFLIKTOLOGIYA**

(60110500 - "Boshlang'ich ta'lim" bakalavr yo'nalishi
uchun Darslik)

Toshkent
«Yangi chirchiq prints»
2023

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

k
5
k
5
k
1
8
ni
0
ni
6
ni
6
ig
8
ni
9
ni
'6
ni
18
ni
38
ni
35
ni
30
ni
16
ni
22
26
27
30
31

- 14129/17-

UO'K 373;373.167.1

KBK 74.202.2

U-42

Umarova Z.A. Boshlang'ich ta'limda konfliktologiya [Darslik]:
– Toshkent. Yangi chirchiq prints – 2023.- 134 bet.

Mas'ul muharrir:

Mardonov Shukurullo Quldashevich - *pedagogika fanlari*
doktori, professor.

Taqrizchilar:

Jumanova Fotima Uralovna - *pedagogika fanlari nomzodi,*
dotsent.

Jabborova Onaxon Mannapovna - *pedagogika fanlari bo'yicha*
falsafa doktori (PhD).

Mazkur darslik namunaviy Dastur asosida ishlab chiqilgan tanlov fani ishchi-o'quv dasturiga binoan shu sohada yozilgan birinchi o'quv adabiyoti bo'lib, unda boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish nazariyasi, texnologiyasi va amaliyoti yoritilgan. Darslikni tuzishda o'qitishning kredit-modulli tizimi talablariga tayanilgan va eng maqbul texnologiyalar taqdim etilgan.

Darslik talabalar, professor-o'qituvchilar, mutaxassislar, amaliyotchi o'qituvchilar va boshlang'ich ta'lim muammosi bilan qiziquvchilarga mo'ljallangan.

Darslik Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 29 sentyabrdagi 438-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etildi.

ISBN 978-9910-9965-4-2

Mundarija

Kirish

1-Modul. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarning nazariy-metodik masalalari	5
1-mavzu: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlar.....	5
2-mavzu: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni o'rganish metodologiyasi.....	11
3-mavzu: Boshlang'ich sinflarda konfliktogenlar.....	18
4-mavzu: Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish masalalari.....	30
2-Modul. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyalari	46
5-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning hamkorlik texnologiyasi.....	46
6-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarning bartaraf etishning elektron-modulli texnologiyasi.....	58
7-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning masofaviy texnologiyasi.....	69
8-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning muloqot texnologiyasi.....	76
3-Modul. Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish amaliyoti	88
9-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda oila bilan hamkorlik.....	88
10-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda jamoatchilik hamkorligi.....	95
11-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda xalqaro dasturlardan foydalanish.....	100
12-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda mutaxassislardan foydalanish.....	116
13-mavzu: Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda Sinf rahbarining o'rni.....	122
Amaliy mashg'ulotlar uchun mavzular.....	126
Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar.....	127
Tavsiya etiladigan adabiyotlar.....	130
Lug'at.....	131

Kirish

“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da boshlang‘ich ta‘limni sifatli rivojlantirish va uning samaradorligiga erishish vazifalari qo‘yilgan. Bunda boshlang‘ich ta‘limga xalqaro ta‘lim dasturlarini joriy etish, professional boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta‘limning keyingi bosqichlariga yo‘naltirish masalalariga asosiy e‘tibor qaratilmoqda. Shu sababli oliy pedagogik ta‘lim muassasalarida boshlang‘ich ta‘lim jarayonida yangi o‘quv dasturlari va adabiyotlarini joriy etish dolzarb bo‘lib turibdi. “Boshlang‘ich ta‘limda pedagogik konfliktlar” o‘quv dasturi ana shunday yangi fan asoslaridan biri bo‘lib, u asosida yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish taqoza etiladi. Mazkur darslik “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi” o‘quv fanining Namunaviy dasturi asosida tuzilgan Ishchi-o‘quv dasturiga binoan tuzildi va yangi ehtiyojlarning hosilasi sifatida tayyorlandi.

Darslikni tayyorlashda boshlang‘ich ta‘limda pedagogik konfliktlar va ularni bartaraf etishning nazariyasi, texnologiyasi hamda amaliyoti masalalariga asosiy e‘tibor qaratildi. Bu o‘rinda oliy pedagogik ta‘lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakasini tarkib toptirish asosiy maqsad sifatida belgilandi. Chunki ta‘lim va tarbiya jarayonidagi pedagogik konfliktlar bilan ishlashda o‘qituvchining nazariy, texnologik va amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lishi taqoza etiladi.

Darslikni tayyorlash jarayonida pedagogik konfliktlar bo‘yicha e‘lon qilingan o‘quv adabiyotlarining eng maqbul yondashuvlari, qulay va oson texnologiyalar hamda metodikalarga diqqat qilinib, ijodiy foydalanildi.

Jamiyatimizning hozirgi rivojlanish sharoitida ta‘limning turli shakllaridan foydalanish amal qilmoqda. Shu sababli darslikni tuzishda ta‘limning oflayn, onlayn va mustaqil ta‘lim shakllari talabalari ham hisobga olindi. Darslikdan foydalanishda undagi materiallarga ijodiy va erkin yondashish tavsiya etiladi.

Darslik boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha yangi avlod o‘quv adabiyotlari sarasiga kiradi va shu sababli u to‘g‘risidagi fikr-mulohazalaringizni Chirchiq davlat pedagogika universitetida kutib qolamiz.

1-Modul. Boshlang‘ich ta‘limda pedagogik konfliktlarning nazariy-metodik masalalari

1-mavzu: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida pedagogik konfliktlar

Reja:

1. “Konfliktologiya” tushunchasining mazmuni.
2. Boshlang‘ich ta‘limda pedagogik konfliktlar muammosi.
3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlar turlari.

Tayanch tushunchalar:

Ta‘lim, boshlang‘ich, pedagogika, konflikt, tushuncha, bilim, ko‘nikma, malaka.

“Konfliktologiya” tushunchasining mazmuni. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da qo‘yilgan vazifalar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining universal bilim va metodikaga ega bo‘lishini taqoza etadi. Shu ma’noda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik konfliktologiya bo‘yicha bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Bu o‘rinda konfliktologiya tushunchasining mazmuniga e‘tiboringizni tortamiz.

“Konfliktologiya” atamasi lotincha bo‘lib, o‘zbek tilida quyidagi ma’nolarni anglatadi:

- 1) ziddiyat;
- 2) mojaro;
- 3) kelishmovchilik;
- 4) o‘zaro tushunmovchilik.

Bu ma’nolar atamaning mazmunini to‘liq ifodalasada, biroq pedagogik va psixologik qonuniyatlarga asosan *ziddiyat* tushunchasini qabul qilish metodik jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi. Chunki ziddiyat ma‘lum bir ta‘lim muhiti, vaqti va sharoitlarga mos ravishda yuzaga keladigan anglashilmovchilikni bildiradi,

unda salbiy ma'noga nisbatan ijobiylik xususiyati bo'rtib turadi. Shu sababli mazkur ziddiyat tushunchasini konfliktologiya atamasining muqobili sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ayni paytda, mazkur atamaning mojaro, kelishmovchilik va o'zaro tushunmovchilik ma'nolarida nisbatan salbiy xususiyat ko'zga tashlanadi. Konfliktologiyani turli fanlar bo'yicha o'ziga xos nazariyalari mavjud. Shu jihatdan konfliktologiyani pedagogik nazariyasida tushunchalarning ta'limiy, tarbiyaviy va metodik ahamiyatga ega ma'nolari hisobga olinishini eslatib o'tish kerak. Bizning yondashuvimizga ko'ra, konfliktologiya tushunchasini ana shunday xususiyatlarga ega ma'nolar bilan atash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ta'lim va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan pedagogik konfliktlar o'tkinchi xarakterga egaligi bilan diqqatni tortadi. Umuman "ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogik konfliktlar" deganda tomonlarning vaqtinchalik o'zaro ziddiyatga duch kelishini tushunish metodik jihatdan to'g'ridir.

Keyingi besh yildavomidamamlakatimizdakonfliktologiya tushunchasining falsafiy, psixologik, ijtimoiy va pedagogik ma'nolari bo'yicha bir talay yondashuvlar, qarashlar hamda tahlillar amalga oshirilganligini eslatib o'tish joiz. Bu tahlillarda konfliktologiya tushunchasining mazmuni muayyan fan vakili bo'lgan muallifning nuqtai nazarini ifodalaydi. Shu jihatdan oliy pedagogik ta'lim jarayonida konfliktologiya tushunchasining *pedagogik mazmunga* ega ma'nolarini qo'llash tavsiya etiladi.

Xorijlik ko'pgina konfliktolog-pedagog olimlar oxir-oqibatda tushunchalarning ma'nosini ifodalashda pedagogik mazmunning ustuvor bo'lishini tavsiya etishadi. Bu hol bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari konfliktologiya tushunchasining ma'nolarini aniqlash va belgilashda quyidagi tamoyillarga asoslanishi maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi:

- 1) pedagogik mazmunning ustuvor bo'lishi;
- 2) ta'lim va tarbiyaning xususiyatlari hisobga olinishi;
- 3) ta'lim va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan pedagogik konfliktlar bartaraf etish xususiyatiga ega bo'lishini e'tiborga

olish.

Bunday yondashuv bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan konfliktologiya tushunchasining pedagogik ma'nolarini anglab olinishida tayanch vazifasini o'taydi.

Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktlar muammosi. Boshlang'ich ta'lim mamlakatimiz milliy ta'lim tizimining muhim bosqichlaridan biri sifatida va real sharoitlarda amalga oshirilishi bilan pedagogik konfliktlar muammosiga duch kelinadi. Shu sababli bu muammo tabiiy tushunilishi kerak. Bunda quyidagilarga e'tibor berish muhim ahamiyatga ega:

1. *Konfliktlarning turlari.* Konfliktologiyani yirik uch ko'rinishi: ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy turlari mavjud. *Ijtimoiy* konflikt turlari shaxs axloqi, ongi va maqsad-muddolariga ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. *Iqtisodiy* konflikt turlari esa shaxsning yaratuvchilik, ijodkorlik va jamiyatning farovonlik negizlariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar majmuidir. *Siyosiy konfliktlar* ko'p hollarda siyosiy partiyalar va davlatlararo ziddiyatlar ko'rinishlarida namoyon bo'ladi.

Bizning nuqtai nazarimizga ko'ra, ta'lim va tarbiya jarayonida ijtimoiy konflikt turlari muhim o'rin tutadi va ularning turli ko'rinishlari, shakllari hamda omillari 7-11 yoshli boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik, bilimdonlik va ko'nikuvchanlik malakalariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi hodisa hisoblanadi. Shu jihatdan biz mazkur darsligimizda konfliktlarning ijtimoiy xarakterdagi turlariga asosiy e'tiborni qaratamiz.

2. *Konfliktlarning ko'rinishlari.* Konfliktlarning ikki muhim: ichki va tashqi ko'rinishi mavjud. *Ichki* konfliktlar muayyan muhitda yaqin kishilar o'rtasida yuzaga keladi. *Tashqi* konfliktlar esa tashqi kuchlar ta'sirida yuzaga kelib, shaxs hayotiga daxl qiladi.

Ichki konfliktlar ko'p hollarda ta'lim va tarbiya jarayonida ta'lim ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladi. Misol uchun, o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi nizolar, o'quvchi va maktab jamoasi orasidagi